

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.05/2025.27.12.FM.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

XAMRAKULOV FARXODJON BAXRONKUL O'G'LI

**YANGI O'ZGARUVCHAN YULDUZLARNI IZLASH VA TANLANGAN
TO'SILUVCHAN QO'SHALOQ TIZIMLARDA APSIDAL HARAKAT TADQIQOTI
ETISH**

01.03.01 – Astronomiya

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
физико-математических наук**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Xamrakulov Farxodjon Baxronkul o'g'li

Yangi o'zgaruvchan yulduzlarni izlash va tanlangan to'siluvchan
qo'shaloq tizimlarda apsidal harakat tadqiqoti

3

Хамракулов Фарходжон Бахронкул угли

Поиск новых переменных звезд и исследование апсидального
движения в избранных затменно-двойных системах

24

Khamrakulov Farkhodjon Bakhronkul ugli

Search new variable stars and investigation of apsidal motion in
selected eclipsing binaries

46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

50

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.05/2025.27.12.FM.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

XAMRAKULOV FARXODJON BAXRONKUL O'G'LI

**YANGI O'ZGARUVCHAN YULDUZLARNI IZLASH VA TANLANGAN
TO'SILUVCHAN QO'SHALOQ TIZIMLARDA APSIDAL HARAKAT TADQIQOTI**

01.03.01 – Astronomiya

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)

DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PHD/FM1320 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti va Sharof rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.astrin.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Burxonov Otabek Anvarjonovich

fizika-matematika fanlari nomzodi, O'zR FA AI

Rasmiy opponentlar:

Toshmatov Bobir Abdumanonovich

fizika-matematika fanlari doktori, O'zR FA AI

Kusakin Anatoliy Vasilevich

fizika-matematika fanlari nomzodi, Fenshenkov nomidagi astrofizika instituti Qozog'iston

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi PhD.05/2025.27.12.FM.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, Astronomiya instituti. Tel. (+99871) 235-81-02; faks (+99871) 234-48-67; e-mail: info@astrin.uz).

Dissertatsiya bilan Astronomiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy, O'zR FA AI. Tel. (+99871) 235-81-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi ____ – raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.A. Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.-m.f.d., akademik

K.E. Ergashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, katta ilmiy xodim

A.B. Abdikamalov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda o'zgaruvchan yulduzlarni izlash va o'rganishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib kelmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, o'zgaruvchan yulduzlar ko'plab guruhlar, sinflar va turlarni qamrab oluvchi keng qamrovli tadqiqot sohasidir. Bularning ikkinchi eng katta guruhi tashqi o'zgaruvchan yulduzlar yoki aniqrog'i, o'zgaruvchanligiga yulduzning o'zidan tashqaridagi kuchlar va hodisalar, masalan, o'zaro to'silishlar ta'sir qiladigan yulduzlardir. Tashqi o'zgaruvchan yulduzlar asosan optik kuzatuvlar yordamida o'rganilishi mumkin bo'lgan qo'shaloq tizimlardan iborat. Kuzatuv natijalaridan yulduz fizikasi bilan bog'liq ko'plab muammolarni hal qilish uchun foydalanish mumkin. Qo'shaloq yulduzlar tizimdagi yulduzlar massasini baholash/aniqlash uchun eng yaxshi vositadir. Bundan tashqari, kuzatishlarda qayd etilgan tutilish minimumlarining aniq vaqti bizga orbital davrni aniqlash, orbital davrning o'zgarish tezligini baholash va tizimda noma'lum obyektlar (sayyoralar) yoki qo'shaloq tizimning qo'shimcha yulduz sheriklari mavjudligini aniqlash imkonini beradi bu esa muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida o'zgaruvchan yulduzlarni qidirish va ularning tasnifi bo'yicha tadqiqotlarning natijalari hozirda AAVSO¹ (Amerika o'zgaruvchan yulduz kuzatuvchilari assotsiatsiyasi (VSX)) xalqaro o'zgaruvchan yulduzlar katalogi va o'zgaruvchan yulduzlarning umumiy katalogida (GCVS)² mavjud. 2026-yil boshiga kelib, ushbu manbalarda 10,2 milliondan ortiq o'zgaruvchan yulduzlar ro'yxati mavjud va ular doimiy ravishda yangilanib turadi. O'zgaruvchan yulduzlarni o'rganish yulduz fizikasi bo'yicha fundamental bilimlarni kengaytirish, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va real hayotdagi loyihalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, yaqinda aniqlangan yangi o'zgaruvchan yulduzlar ro'yxatidagi eksentrik yoki elliptik orbitali qo'shaloq tizimlarda apsidal chiziqning harakatini o'rganish orqali to'silish vaqtidagi kuzatilgan komponentlarning ravshanlik o'zgarishlari tizimdagi ikkilamchi effektlarni, ya'ni uchinchi jismning mavjudligi, tortishish, xiralashishi, yulduz dog'lari va shunga o'xshash hodisalarni o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda ayni paytda, xususan, Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida, asosan, Maydanak Astronomiya observatoriyasida olib borilgan optik kuzatishlar orqali o'zgaruvchan yulduzlarni aniqlash, ularning turlarini o'rganishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirilib, muayyan ijobiy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.10.2020 yildagi PF-6097-son farmoniga asosan "Ilm-fanni 2030-yilgacha

¹ <https://www.aavso.org/>

² <http://www.sai.msu.su/gcvs/gcvs/>

rivojlantirish konsepsiyasini” amalga oshirish davlat dasturi hisoblanib u ilmfanning istiqbolli va yangi yoʻnalishlarida, xususan, astronomiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari jadallashtirish boʻyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda xorijiy ilmiy tadqiqot institutlar va astronomik observatoriyalar bilan mustahkam ilmiy hamkorliklar amalga oshirib kelinmoqda.

Ushbu dissertatsiya ishining ilmiy yoʻnalishi maʼlum darajada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarda Yangi Oʻzbekistonni rivojlantirish strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son farmoni, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PP-5032-sonli “Fizika sohasida taʼlim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda berilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining: “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” gi 29.10.2020 yilda chiqarilgan PF-6097-sonli farmonining 3-bob “Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlari” da keltirilgan bandlari - “uchinchisi, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yoʻnaltirish” va “beshinchisi, ilm-fan taraqqiyotiga koʻmaklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish” ustuvor yoʻnalishlariga mos keladi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Bugungi kunda jaxonda ushbu sohadagi tadqiqotlar NASAning yirik kosmik missiyalari va loyihalari, masalan, GAIA³ (Global Astrometric Interferometer for Astrophysics), TESS⁴ (Transiting Exoplanet Survey Satellite) tomonidan olib borilmoqda. Koʻplab xalqaro kosmik missiyalardan tashqari, oʻzgaruvchan yulduzlarni qidirish va oʻrganish uchun yer usti kuzatuvlariga asoslangan keng koʻlamli optik kuzatuvlarni tashkil etishga ham katta ahamiyat beriladi. Shu nuqtai nazardan, eng yirik loyihalardan biri ASAS-SN⁵ (Supernovalar uchun All-Sky Automated Survey) va ZTF (Zwicky Transient Facility) hisoblanadi. Hozirgi kunda koʻplab xorijiy olimlar yangi oʻzgaruvchan yulduzlarni qidirish va qoʻshaloq tizimlarda apsidal chiziqlarning harakatini oʻrganish sohasida faol ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, oʻzgaruvchan yulduzlar sohasida turli nazariy va amaliy tadqiqotlar olib bormoqdalar. Masalan “Oʻzgaruvchan yulduzlarning umumiy katalogi” (GCVS) Rossiya Fanlar akademiyasining Astronomiya instituti va P.K. Shternberg nomidagi Astronomiya instituti tomonidan yaratilgan va hozirda prof. N. N. Samus va uning ilmiy jamoasi N.A. Gorynya, A.M. Zubareva, E.V. Kazarovets, E.A. Karitskaya, A.V. Xruslov, N.N. Kireeva tomonidan shakllantirilib borilmoqda. Avstraliya Milliy Universitetidan William Patrick Clarke va uning

³ https://www.esa.int/Science_Exploration/Space_Science/Gaia_overview

⁴ <https://heasarc.gsfc.nasa.gov/docs/tess/>

⁵ <https://www.astronomy.ohio-state.edu/asassn/>

ilmiy jamosi o'zgaruvchan yulduzlarning kashf qilish va sinflashtirish, o'zgaruvchan yulduzlarning avtomatlashtirilgan xolda sinflashtirish bo'yicha Jonas Debosscher uning jamoasi faollik ko'rsatmoqda. Taniqli astronom olimlardan A.M. Cherepashchuk, A.S. Rastorguev, E.G. Lapukhin, A. Samokhvalov, A.V. Serebryanskiy, Moises Castillo, SaiKiran Varma Sirigiri kabi olimlar yangi o'zgaruvchan yulduzlarni tadqiqotlari bilan shug'ullanib kelmoqdalar. O'zgaruvchan yulduzlarning EA-algol tipiga tegishli eksentrik orbitaga ega tizimlarda apsidal harakat effektlarini Kh.F. Khaliullin, I.M. Volkov, V.S. Kozyreva, A.I. Bogomazov, A.V. Kusakin, I. Bulut, P. Zasche, J. Southworth, M. Wolf, D. Sürgit, O. Özdarcan, Prsa Andrej, Sophie Rosu va boshqa bir qator taniqli olimlar tadqiqod ishlarini olib borishmoqda.

Respublikamizda hozirgi vaqtda o'zbek olimlari o'zgaruvchan yulduzlarni aniqlash va ularni tadqiqoti bo'yicha Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida O.A. Burxonov, R.G. Karimov, A.V. Khalikova kabi taniqli olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu tadqiqot ishi bizning mamlakatimizda yangi o'zgaruvchan yulduzlarni izlash va tanlangan to'siluvchan qo'shaloq tizimlarda apsidal harakat o'rganish sohasidagi ixtisoslashgan ilk ishlardan biridir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Astronomiya institutida va Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Muhandislik fizikasi institutining Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasida bajarildi. Ushbu dissertatsiya doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining Galaktik astronomiya laboratoriyasining rejalariga mos keladi va qisman IL-5421101855 "Kosmik gamma-nurlanish manbalarini qidirish, kuzatish va o'rganish" loyihasining bir qismidir.

Tadqiqotning maqsadi: Maqsadli kuzatilgan maydonlarda yangi aniqlanmagan o'zgaruvchan yulduzlarni hamda tanlangan EA tipidagi to'siluvchan qo'shaloq yulduzlarida apsidal harakatni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- Osmonning tanlangan maydonlarini fotometrik kuzatuvlarini o'tkazish;
- Kuzatilgan maydonlarda yangi o'zgaruvchan yulduzlarni izlash;
- Aniqlangan yangi o'zgaruvchan yulduzlarni ravshanlik egri chizig'iga ko'ra o'zgaruvchanlik sinflariga va tiplarga ajratish;
- Ilgari ma'lum bo'lgan va yangi o'zgaruvchan yulduzlarning o'zgaruvchanlik xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish;
- Eksentrik orbitali qo'shaloq tizimlarda apsidal chiziq harakatining parametrlarini aniqlash;
- EA tipdagi eksentrik orbitaga ega to'siluvchan qo'shaloq sistemalarda uchinchi jism mavjudligini tekshirish;
- Tanlangan EA tipidagi ikkilik tizimlarda apsidal chiziqning harakatini

o'rganish.

Tadqiqot obyekti. Ushbu dissertatsiya ishida tadqiqod obyekti sifatida yangi o'zgaruvchan yulduzlar va EA – algol tipidagi eksentrik orbitaga ega to'siluvchan qo'shaloq tizimlarga qaratilgan.

Tadqiqot predmeti. Kuzatilgan tanlangan maydonlarda yulduzlarni ravshanlik egri chiziqlari va EA – algol tipidagi yulduzlar hamda ularning vaqt o'tishi bilan o'zgarib turadigan davriy tarkibiy qisimlaridir.

Tadqiqot usullari.

Umume'tirof va umumiy tan olingan kuzatuv usullari, CCD (ZAQ) raqamli astrotasvirlarni qayta ishlashning standart usullari, astrometrik va fotometrik o'lchash usullari, matematik tahlilning tan olingan usullari va fotometrik vaqt qatorlaridagi geometrik, fizik komponentalarini aniqlashni statistik usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Tanlangan $\alpha=22^{\text{h}}50^{\text{m}}$ $\delta=54^{\circ}00'$, $\alpha=23^{\text{h}}58^{\text{m}}$ $\delta=+62^{\circ}37'$ va $\alpha=21^{\text{h}}50^{\text{m}}$ $\delta=+59^{\circ}00'$ maydonlarda 164 ta turli tipdagi yangi o'zgaruvchan yulduzlar ilk marotaba aniqlanib davrlari va boshlang'ich parametrlari aniqlangan.

Birinchi marta EA tipdagi V1059 Cep, V1437 Cas va 2MASS 22425392+5439498 qo'shaloq tizimlar eksentrik orbitaga ega ekanligi va tizimda apsidal harakat mavjudligi aniqlangan hamda tizimning orbital hamda komponentalarning fizik parametrlari aniqlangan.

V1437 Cas tizim atrofida uchinchi jism mavjudligi aniqlangan bo'lib, uchinchi jismning orbital davri $27,255 \pm 0,00127$ kun ekanligi kuzatuvlar asosida hisoblangan.

2MASS 22425392+5439498 obyekti dastlabki fotometrik natijalari, TESS va ASASSN-V fotometrik natijalari har biri alohida tahlil qilinib JKTEBOP dasturi yordamida ravshanlik egri chiziqlariga mos model yaratilgan hamda tizimning orbital parametrlari o'zgarishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

164 ta yangi o'zgaruvchan yulduzlar uchun "O'zgaruvchan yulduzlar" bazasi yaratildi va ular o'zgaruvchanlik tiplari bo'yicha sinflashtirilgan;

Tanlangan qo'shaloq yulduzlarning parametrlari kuzatuvlar asosida hisoblab chiqilgan va modellari yaratilgan;

V1059 Cep va V1437 Cas to'siluvchan qo'shaloq EA tizimlarda apsidal harakati aniqlangan;

Fotometrik kuzatuv natijalarining tahliliga asoslanib V1437 Cas va 2MASS 22425392+5439498 obyektlarda uchinchi jism aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Kuzatuv ma'lumotlari va natijalarini qayta ishlash, o'zgaruvchanlikni tahlil qilish va uni ma'lum turlarga ajratish hamda fotometrik natijalarimizni eksentrik orbitali Algol tipidagi tanlangan to'siluvchan qo'shaloq tizimlarning boshqa kuzatuvlar natijalari bilan taqqoslash uchun zamonaviy, tasdiqlangan usullar va dasturiy ta'minotni tanlash ushbu usullarga asoslangan edi. Tanlangan Algol tipidagi eksentrik orbitaga ega obyektlardagi o'tkazilgan tadqiqot usullari zamonaviy va taniqli tadqiqochilar tomonidan foydalanib kelinayotgan zamonaviy dasturlar yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o'zgaruvchan yulduzlar kataloglarida ilgari ro'yxatdan o'tmagan yangi o'zgaruvchan yulduzlar uchun ularning o'zgaruvchanlik sinflari va tiplari aniqlanadi hamda aniqlangan yangi ma'lumotlar O'zgaruvchan yulduzlarning umumiy kataloglarini boyitish imkonini bergan.

Yangi kashf etilgan o'zgaruvchan yulduzlar, o'zgaruvchan yulduzlar haqidagi statistik ma'lumotlarni to'ldirishdan tashqari, osmondagi o'zgaruvchan yulduzlarning fazoviy taqsimlanishini aniqlashtirish uchun ham ishlatiladi.

Olingan natijalar Algol tipidagi eksentrik orbitali qo'shaloq tizimlarda apsidal harakat bo'yicha mavjud ma'lumotlarni to'ldiradi va ularni evolyutsiyasini o'rganishda, qo'shimcha komponentalarni qidirishda va zich qo'shaloq tizimlardagi fizik jarayonlarni o'rganishda ishlatiladi.

Bundan tashqari, dissertatsiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati olingan kuzatuv natijalari bilan belgilanadi va ular o'rganilayotgan va shunga o'xshash obyektlarni yanada chuqur tadqiq etish uchun tabiiy laboratoriya natijalari hisoblanadi.

Ushbu ishdagi natijalar va usullar Respublikamizdagi universitetlarining astronomiya yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavr va magistr lari uchun maxsus kurslarga ham kiritiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi o'zgaruvchan yulduzlarni izlash va tanlangan to'siluvchan qo'shaloq tizimlarda apsidal harakat tadqiqoti bo'yicha olingan natijalar asosida:

kuzatuv natijalarini tahlil qilish orqali yangi aniqlangan 49 ta yulduz "O'zgaruvchan yulduzlarning umumiy katalogi"ga kiritilgan (Rossiya Fanlar akademiyasi P.K. Shternberg nomidagi Astronomiya institutining 2026-yil 30-yanvardagi ma'lumotnomasi). Natijada o'zgaruvchan yulduzlarning umumiy katalogi bazasidagi obyektlar soni ortishiga, katalogning ilmiy qiymati oshishiga, fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun ilmiy asos yaratilishiga erishilgan;

tanlangan kuzatuv maydonlarda aniqlangan yangi o'zgaruvchan yulduzlar to'g'risidagi 2022-2023 yillarda Peremennye Zvezdy jurnalida chop etilgan "Variable Stars Discovered at the Maidanak Observatory, Discovery of Six New Variables va New variable stars in Lacerta Part III" maqolalariga 1 tadan umumiy 3 ta iqtibos keltirilgan;

maqsadli kuzatuv maydonlarda aniqlangan yangi o'zgaruvchan yulduzlar bo'yicha 2020-2021 yillarda Peremennye Zvezdy jurnalida chop etilgan "New Variable Stars in Lacerta Part I, II" maqolalariga 1 ta dan umumiy 2 ta iqtibos keltirilgan;

eksentrik orbitaga ega qo'shaloq tizimlarni apsidal harakatiga bag'ishlangan tadqiqod ishi bo'yicha 2024-yilda Peremennye Zvezdy jurnalida chop etilgan "The Apsidal Motion in the Eclipsing Binary V1437 Cas" 2 ta iqtibos keltirilgan.

Tadqiqot natijalarini approbatsiyasi. Tadqiqot natijalari O'zbekiston

Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universitetining Muhandislik fizikasi va Yadro texnologiyalari institutlarida seminarlarida, 10 dan ortiq xalqaro va milliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 24 ta ilmiy ish nashr qilingan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, WoS va SCOPUS ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalanuvchi yuqori reytingli va impakt faktorga ega ilmiy jurnallarda 10 ta maqolalar hamda Respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalarda 10 ta tezislar, chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyani **kirish** qismida ish mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan. Ishning maqsad va vazifalari tavsiflangan. Tadqiqot natijalarining yangiligi va ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati qayd etilgan.

Birinchi bob to'rtta paragraph bo'lib, birinchi paragraph o'zgaruvchan yulduzlar kashf qilinishi va o'rganilish tarixi hamda butun dunyo bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning bugungi holati haqida qisqacha bayon qilingan. Xususan, 1596 yilda kuzatilgan ilk Mira o'zgaruvchan yulduzidan boshlab to zamonaviy yer usti va kosmik missiyalargacha bo'lgan o'zgaruvchan yulduzlar tadqiqotlari qisqa tarixi o'rin olgan. Shu bilan birga tasdiqlangan o'zgaruvchan yulduzlar sonini ortib borishi ko'rsatilib, bugungi kunda ularning soni 10 mln dan oshganiga asoslar keltirilgan. Ikkinchi paragraphda o'zgaruvchan yulduzlarning tasnifiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bunda o'zgaruvchan yulduzlarni xususiyatlariga ko'ra ularning turlari va sinflanishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bugungi kunda o'zgaruvchan yulduzlar xususiyatlariga ko'ra ikkita asosiy toifaga bo'linadi, yani ichki va tashqi o'zgaruvchan yulduzlar⁶. Aytib o'tish kerak, ichki o'zgaruvchan yulduzlar ravshanligi ularning ichida yoki yuzasida sodir bo'ladigan fizik jarayonlar sababli o'zgaradi. Bu toifa yulduzlariga pulsatsiyalanuvchi, eruptiv va kataklizmik o'zgaruvchanlar kiritiladi va o'z navbatida sinflashtirilib guruhlar va tiplarga ajratiladi. Tashqi o'zgaruvchan yulduzlar toifasiga yulduzlarning ravshanligi o'zgarishlari yulduzning xususiyatlariga bevosita ta'sir qilmaydigan tashqi hodisalar tufayli yuzaga keladi. Bu toifaganing ikkita asosiy guruhi mavjud bo'lib, ular aylanuvchi va to'siluvchan yulduzlardir. Ta'kidlab o'tish kerak, to'siluvchi o'zgaruvchan yulduzlarni koplak tiplari mavjud, masalan EA Algol tipidagi o'zgaruvchi yulduzlar. Uchinchi paragrafda to'siluvchan qo'shaloq yulduzlarda kuzatiladigan ba'zi effektlar tavsiflangan, masalan bunday o'zgaruvchan yulduzlarni ravshanlik egri chiziqlarida kuzatiladigan assimetriya - O'Connell

⁶ <https://www.aavso.org/vsx/index.php?view=about.vartypes>

effekti. Shu bilan birga apsidal harakat effekti asoslari xam kelritilgan. 1-bob 4 -paragafida muammoning hozirgi holatiga oydinlik kiritilgan.

Ikkinchi bobda dissertatsiya tadqiqotlari doirasida o'zgaruvchan yulduzlarni kuzatuvlari, optik kuzatuv ma'lumotlarini qayta ishlash, ravshanlik egri chiziqlaridan davriy signallarni aniqlash usullari va o'zgaruvchan yulduzlarni aniqlash va qidirishda foydalanilgan VaST dasturi haqida aniq ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida kuzatuvlar olib borilgan punktlar, foydalanilgan teleskoplar va ZAQ (Zaryadli Aloqa Qurilmasi) kameralar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ta'kidlab o'tish kerak asosiy kuzatuvlar Rossiya Federatsiyasining Krasnoyarsk shahridagi Akademik M. F. Reshetnev nomidagi Sibir davlat fan va texnologiyalar universiteti observatoriyasidagi 0,4 metrli teleskopda 1 maydon va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Astronomiya institutining Maydanak observatoriyasi 0,5 metrli AMT-1 teleskopida 2 ta maydon kuzatilgan. Kuzatuvlarda ZAQ kameradan foydalanilganligi sababli teleskopning kirib borish kuchini hisoblashda ekspozitsiya vaqtini inobatga oladigan quyidagi formuladan foydalanildi:

$$m = 4.5 + 4.4 \lg (D) + 1.25 \lg (t) \quad (1)$$

bu yerdagi D- teleskop bosh ko'zgusining mm dagi diametric, t - ekspozitsiya vaqti.

Kuzatuv natijalariga tasir qiluvchi yana bir omil signalni shovqinga nisbatiga (SNR) katta e'tibor qaratildi. Gap shundaki, SNR fotometrik o'lchovlarning aniqlik chegarasini (xatoliklarini) baxolashda muhim ro'l o'ynaydi. Shu sababli biz SNR dan quyidagi formuladagidek foydalandik:

$$\sigma_{\text{mag}} = -2.5 \lg \left(1 + \frac{1}{\text{SNR}} \right) \approx \frac{1}{\text{SNR}}$$

SNR tasirini quyidagi misollar yordamida korishimiz mumkin:

Agar, SNR =10, $\sigma_{\text{mag}} = -2.5 \lg (1+0.1) = -2.5 \lg (1.1) \approx 0.1$

Agar, SNR =50, $\sigma_{\text{mag}} = -2.5 \lg (1+0.02) = -2.5 \lg (1.02) \approx 0.02$

Agar, SNR =100, $\sigma_{\text{mag}} = -2.5 \lg (1+0.01) = -2.5 \lg (1.01) \approx 0.01$

Agar, SNR =200, $\sigma_{\text{mag}} = -2.5 \lg (1+0.005) = -2.5 \lg (1.005) \approx 0.005$

Bobning ikkinchi paragrafida optik kuzatuv ma'lumotlarini qayta ishlash to'g'risida batafsil ma'lumot keltirilgan. Hozirgi vaqtda IRAF, MIDAS, AIPS, IDL, Astropy va boshqa ko'plab moslashuvchan dasturiy paketlar mavjud. Ushbu paketlar ZAQ tasvirlarini qayta ishlash uchun zarur bo'lgan deyarli barcha talablarni qondiradi. Ushbu tadqiqotda astronomik dasturiy ta'minotlarning eng keng qamrovli to'plami bo'lgan IRAF dasturiy paketidan foydalanildi. Kuzatuvlar davomida olingan astronomik ZAQ tasvirlarga birlamchi ishlov berish quyidagi standart bosqichlarni o'z ichiga oladi, yani ishchi tasvirlarga bias (nolinchi satx siljishi), flat (tasvir yuza tekisligi) va dark (qorong'ulik toki) ga tuzatishlar kiritishdan iborat. Fotometrik o'lchovlarni amalga oshirish uchun aperturali fotometriyadan foydalanildi. Ishchi tasvirlarga birlamchi

ishlov berishning barcha bosqichlari IRAF⁷ dasturlar paketining CCDRED paketida amalga oshirildi. Birlamchi ishlov berilgan ZAQ tasvirlarda fotometrik o'lchovlarni amalga oshirish uchun IRAF ni DAOPHOT va APHOT paketlaridan foydalanildi. Bunda uskuna yulduz kattaliklarini olishda tasvir fonini inobatga oluvchi quyidagi formuladan foydalanildi:

$$m_{ins} = -2.5 * \lg \left(I_{S+B} - I_B * \left(\frac{N_{S+B}}{N_B} \right) \right) \quad (2)$$

bu yerda m_{ins} – uskuna yulduz kattalik, I_{S+B} – yulduzning fon bilan birgallikdagi umumiy yorqinligi, I_B – fon yorqinligi, N_{S+B} – belgilangan aperturada piksellar soni, N_B – orqa fon yorqinligini baholash uchun ishlatiladigan piksellar soni.

2-bob uchinchi paragrafida ravchanlik egri chiziqlarida davriy signallarni aniqlash usullariga to'xtanilgan bo'lib, bunda astronomiyada keng foydalaniladigan va eng samarali usul sifatida Lomb-Scargl periogrammasi tasvirlangan va uni tezkor hisoblash usuli keltirilgan. Gap shundaki, astronomiyada tekis vaqtli qatorlarni deyarli olib bo'lmaydi va shu sababli odatda notekis vaqt qatorlari bilan ishlaymiz. Aytilgandan kelib chiqib astronomiyada davriy signallarni aniqlashning eng mashhur usullari quyidagilardan iborat: Chastota (LS, SP) tahlili va dispersiya (PDM, AoV) usuli. Biz foydalangan Lomb-Scargl periogrammasi chastota tahlili usuliga kiradi va quyidagi ko'rinishdagi vaqtli qatorlar bilan ishlaydi:

$$x_j = x(t_j) + \sigma(t_j) \quad (3)$$

bu yerda t_j kuzatuv momentidagi $x(t_j)$ yulduz kattaligi va o'lchalar xatoligi $\sigma(t_j) = m_{errj}$. j – vaqt qatoridagi nuqtalarining soni.


Ikkinchi bobning oxirgi paragrafida (§2.4) o'zgaruvchan yulduzlarni izlash usullari tahlili, ushbu dissertatsiya doirasida foydalanilgan kuzatilgan maydonlarda o'zgaruvchan yulduzlarni qidirishning ba'zi usullarini qisqacha bayoni va VaST dasturi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, kuzatuvlardan olingan ravshanlik egri chiziqlarida o'zgaruvchanlikni mavjudligini aniqlashda biz χ^2 mezon tekshiruvdan, standart og'ish usuli (σ_w), absolyut median og'ish usullaridan foydalanildi. Qolaversa, ravshanlik egri chiziqlaridan o'zgaruvchanlikni aniqlashning boshqa ma'lum usullari haqida ma'lumot keltirildi.

Maqsadli kuzatilgan maydonlarda yangi o'zgaruvchan yulduzlarni aniqlash uchun biz Variability Search Toolkit (VaST⁸) dasturidan foydalandik hamda bu dastur to'g'risida aniq misollar asosida yetarlicha ma'lumotlar ko'rsatildi. Aytib o'tish kerak VaST dasturi astrometrik o'lchashlarda Astrometry.net kodidan va ZAQ tasvirlardagi manbalarni (yulduzlarni) fotometriyasida SoExtractor dasturidan foydalanadi. Dastur barcha ZAQ tasvirlarda aniqlangan barcha yulduzlarni ravshanlik egri chiziqlari asosida uskuna yulduz kattaligi va standart og'ish diagrammasini yaratadi (1-rasm, chap). Shu diagrammada oq rangdan boshqa rangdagilar, yani bizning xolda

⁷ <https://iraf-community.github.io/>

⁸ <http://scan.sai.msu.ru/vast/>

ko'k rangda belgilangan yulduzlar o'zgaruvchan yulduzlar sifatida ajratib ko'rsatiladi. Tanlangan o'zgaruvchan yulduz ravshanlik egri chizig'ini ko'rish uchun shu yulduz ustiga bosiladi (1-rasm, o'ng).



1-rasm. VaST dasturi hosil qilgan uskuna yulduz kattaligi va standart og'ishu diagrammasini (chap) (markazi RA=00 31 Dec=+64 00 bo'lgan maydon uchun), o'ngda 1 ta yulduzning ravchanlik egri chizig'i.

Kuzatilgan maydonlardagi barcha aniqlangan o'zgaruvchan yulduzlar avval aniqlanganligi va kataloglarda mavjudligiga tekshirildi. Agar tekshiuruvlardan o'zgaruvchan yulduz avval aniqlanmagan va kataloglarda mavjud bo'lmasa o'zgaruvchan yulduzlarga nozod sifatida qaraldi.

Aniqlangan barcha o'zgaruvchan yulduzlarning ravshanlik egri chiziqlari asosida davriylik baxolanadi/aniqlanadi. Barcha ma'lum va nomzod o'zgaruvchan yulduzning uskuna yulduz kattaligidan tayanch katalog yulduz kattaligiga o'tish uchun quyidagi formuladan foydalanildi:


$$m_{\text{obj}} = m_{\text{obj_ins}} + (m_{\text{ref_cat}} - m_{\text{ref_ins}})$$

bu yerda, m_{obj} - o'zgaruvchan yulduzning tayanch katalog bo'yicha yulduz kattaligi, $m_{\text{obj_ins}}$ - o'zgaruvchan yulduzning uskuna yulduz kattaligi, $m_{\text{ref_ins}}$ - tayanch yulduzning uskuna yulduz kattaligi va $m_{\text{ref_cat}}$ - tayanch yulduzning mos filtdagi tayanch katalogdan olingan standart yulduzning yulduz kattaligi.


“Yangi o'zgaruvchi yulduzlar” deb nomlangan **uchunchi bobda** markazlari $\alpha = 22^{\text{h}}50^{\text{m}}$, $\delta = +54^{\circ}00'$, $\alpha=23^{\text{h}}58^{\text{m}}$ $\delta=+62^{\circ}37'$, $\alpha=21^{\text{h}}50^{\text{m}}$ $\delta=+59^{\circ}00'$ bo'lgan maynolar kuzatuvlari natijalari keltirilgan bo'lib, shu maydonlarda aniqlangan yangi o'zgaruvchan yulduzlar va ularning tavsiflari keltirilgan. Ushbu bobni (§3.1) va (§3.2) paragraflarida foydalanilgan barcha kuzatuv ma'lumotlari Rossiya Federatsiyasining Krasnoyarsk shahridagi Akademik M. F. Reshetnev nomidagi Sibir davlat fan va texnologiyalar universiteti rasadxonasida markazi $\alpha = 22^{\text{h}}50^{\text{m}}$, $\delta = +54^{\circ}00'$ (2000.0) bo'lgan Lacerta yulduz turkumi sohasidagi kuzatilgan. Kuzatuvlar 2012-yil avgust-oktyabr va 2014-yil sentyabr-oktyabr oylarida olib borilgan. Kuzatuvlarda diametri 400 mm va fokus masofasi 915 mm bo'lgan Hamilton tipidagi teleskopidan foydalanilgan bo'lib, teleskop 3K×3K FLI ML-9000 ZAQ kamerasi bilan jihozlangan. ZAQ kameraning pikselning fizik o'lchami 12×12 mkm va yoy sekundlarda 2,7 bo'lgani holda, ko'rish maydoni $2,3 \times 2,3$ daraja teng bo'lgan.

Xususan, 1chi paragrafda Lacerta yulduz turkumi sohasida aniqlangan


ichki o'zgaruvchan yulduzlarning tavsiflari keltirilgan. Ushbu sohada pulsatsiyalanuvchi RR Lira quyi tipiga (2a rasm), Sefeida tipiga (2b rasm), kichik va katta amplitudali DSCT tipidagi (2c,d rasm), L va LB tipidagi noto'g'ri o'zgaruvchan yulduzlar tipidagi (2e rasm) va SR (yarim to'g'ri) tipiga (2f rasm) mansub o'zgaruvchanlar asoslangan. Lacerta yulduz turkumi sohasida yangi aniqlangan jami ichki o'zgaruvchan yulduzlar soni 51 tani tashkil etdi.




a) RR Lyrae tipiga misol




b) Sefeida tipiga misol




c) DSCT tipiga misol



d) HADS tipiga misol




e) L tipiga misol




f) SR tipiga misol

2 – rasm. Aniqlangan yangi o'zgaruvchan yulduzlarning faza egri chiziqlariga namunalar. L tipi uchun ravshanlik egri chizig'i berilgan.


Ushbu bob 2chi paragrafda Lacerta yulduz turkumi sohasida aniqlangan tashqi o'zgaruvchan yulduzlarning tavsiflari keltirilgan. Buda EA (Algol) (3a rasm), EB (β Lira) (3b rasm), EW (W UMa) (3c rasm) va BY Dra (BY Ajdaho) (3d rasm) tiplariga mansub jami 97 ta to'siluvchan qo'shaloq yulduzlar aniqlandi.




a) EA (Algol) tipiga misol



b) EB (β Lira) tipiga misol



c) EW (W UMa) tipiga misol



d) BY Dra (BY Ajdaho) tipiga misol

3-rasm. Tashqi o'zgaruvchan yulduzlariga misol yulduzlarning faza ravshanlik egri chiziqlari.

Uchinchi bob 3chi va 4chi paragrafda foydalanilgan kuzatuv ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Astronomiya institutining Maydanak observatoriyasi AMT-1 teleskopida olingan. Ushbu teleskop bosh ko'zgusi diametri 0,5 metr bo'lib 4Kx4K o'lchamdagi Apogee

Alta U16M ZAQ kamerasi bilan jihozlangan. ZAQ kameraning pikseli fizik o'lchami 9 mikronni tashkil qiladi. Kuzatuvlar 0,907"/piksel masshtabiga va 30,9'x30,9' ko'rish maydoniga mos keladigan 2x2 binning yordamida amalga oshirildi. Kuzatuvlarda Johnson–Cousins Rc filtridan foydalanildi. Kuzatuvlar vaqtida ZAQ kamerasing ish harorati –15°C darajasida ushlandi.


Markazi $\alpha=23^{\text{h}}58^{\text{m}}$ $\delta=+62^{\circ}37'$ koordinatalarda bo'lgan maydonda aniqlangan yangi o'zgaruvchi yulduzlarning tavsiflari 3 paragrafda keltirilgan. Ushbu maydon 2021 yil 5 sentyabridan 30 oktyabrigacha 28 tun davomida kuzatilgan bo'lib, jami 2593 ta ZAQ tasvir olingan.

Kuzatuv ma'lumotlarini VaST dasturidagi tahlili asosida jami 6 ta yangi o'zgaruvchan yulduz aniqlandi. Ulardan 5 tasi EA tipidagi to'siluvchan qo'shaloq yulduz va 1 tasi DSCT tipidagi pulsatsiyalanuvchi yulduz sifatida sinflashtirildi. E'tiborli jihati barcha EA tipidagi yulduzlarning davrlari 1 sutkadan katta bo'lib chiqdi. DSCT tipidagi o'zgaruvchan yulduzning davri 0.07823 sutkaga teng ekanligi topildi (1-jadval).

1-jadval. Markazi $\alpha=23^{\text{h}}58^{\text{m}}$ $\delta=+62^{\circ}37'$ maydonda aniqlangan yangi o'zgaruvchi yulduzlarning ro'yhati.

	USNO-B1.0 bo'yicha ID	Tipi	Koordinatalari (J2000)		Davri sutka
			RA	Dec	
1	1524-0451378	EA	23 58 19.52	+62 29 00.97	2.730
2	1526-0460830	EA	23 58 46.98	+62 36 51.50	*
3	1528-0467698	EA	23 57 05.42	+62 49 53.84	9.15021
4	1526-0458817	EA	23 56 19.56	+62 36 04.59	5.19423
5	1526-0460762	EA	23 58 41.42	+62 37 14.88	1.5154
6	1528-0470117	Dsct	23 59 57.47	+62 49 49.83	0.07823


$\alpha=21^{\text{h}}50^{\text{m}}$ $\delta=+59^{\circ}00'$ koordinatalar atrofidagi aniqlangan yangi to'siluvchan qo'shaloq o'zgaruvchi yulduzlarning tavsiflari 4 paragrafda keltirilgan. Kuzatuvlar 2021 yil 15-26 avgust kunlari (JD 2459442.3 – 2459452.2) amalga oshirilgan. Kuzatuvlar natijasida jami 12 yangi o'zgaruvchan yulduz aniqlanib, ulardan 11 tasi EA va 1 tasi BY Dra tipiga tegishli deb sinflashtirildi. Aniqlangan barcha o'zgaruvchan yulduzlarning o'zgaruvchanlik davrlari 2 sutkada katta deb baxolandi. Ayirim aniqlangan o'zgaruvchan yulduzlarni o'zgaruvchanlik davrlarini aniqlashtirish maqsadida ZTF ma'lumotlari bilan birlashtirib qayta tahlil asosida ularning davrlari topildi. Masalan, EA tipidagi 2MASS 21510036+5906509 yulduzining o'zgaruvchanlik davri shu usulda topildi, yani davri 25,9578445 sutkaga teng bo'lib chiqdi (4-rasm).



4-rasm. 2MASS 21510036+5906509 yulduzining dastlab MAO kuzatuvlari asosida kashf etilgandagi ravshanlik egri chizig'i (o'ngda) va keyinchalik ZTF fotometrik ma'lumotlarini MAO kuzatuvlari natijalari bilan birlashtirish orqali olingan faza ravshanlik egri chizig'i (chapda).

To'rtinchi bob to'laligicha to'siluvchan qo'shaloq tizimlarida apsid chizig'ining aylanishi bo'yicha tadqiqotlar va ularning natijalariga qaratilgan. Bunda EA Algol tipidagi V1059 Cep, V1437 Cas va 2MASS 22425392+5439498 to'siluvchan qo'shaloq yulduzlarining tadqiqot natijalari o'rin olgan.

Ushbu bob birinchi va ikkinchi paragraflarida keltirilgan V1059 Cep to'siluvchan qo'shaloq o'zgaruvchan yulduzi 2021 yilda Maydanak observatoriyasi 0,5 metrli AMT-1 kuzatilib faza ravshanlik egri chizig'i hosil qilindi (5-rasm). Aytib o'tish kerak, V1059 Cep ning o'zgaruvchanlik davri $P_{orb}=2,5568906$ kun bo'lib avval aniqlangan.



5-rasm. V1059 Cep faza ravshanlik egri chizig'i Rc filtridagi 2021-yilgi kuzatuvlar asosida.

V1059 Cep ning faza ravshanlik egri chizig'ida 2chi minimum 0.5 fazadan sezilarli farq chiqqanligi (5-rasm) sababli boshqa mualliflar tomonidan olingan ma'lumotlar asosida qayta tekshirilib bizning natijalar to'g'riligiga ishonch hosil qilindi, yani 2012–2013 yillardagi kuzatuvlar va ZTF ma'lumotlaridan foydalanildi. Bunda, ob'yektining fotometrik parametrlarli va orbital elementlarni aniqlash uchun minimum fazalardagi ravshanlik egri chiziqlari ma'lumotlaridan foydalanildi. Obyektining nazariy ravshanlik egri chizig'ini hisoblashda tizim komponentalari sferik deb qabul qilinadi va ularning chetiga qarab chiziqli ravishda qorayishi hisobga olindi. Natijada minimum fazalardagi ravshanlik egri chizig'lari va nazariy egri chizig'i o'rtasidagi O–C farqlari hisoblab topildi.

Tizimning nazariy ravshanlik egri chizig'ini (tizim model) olish maqsadida limb-darkening koeffitsientlaridan tashqari barcha parametrlarini

erkin qidirish uchun foydalanilgan yechimlar 2-jadvalda keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, barcha 4 ta mustaqil yechimlar tizimning ekscentriklik qiymatlari bir-biriga yaqin va yulduzlarning nisbiy radiuslari yig'indisi ham mos keladi.

2-jadval. V1059 Cep yulduzining turli yillardagi ravshanlik egri chiziqlariga asoslanib olingan parametrlari va orbital elementlari.

Параметр	"a"	"b"	"c"	"d"
r_1	0.240 ± 0.003	0.226 ± 0.003	0.222 ± 0.005	0.252 ± 0.005
r_2	0.240 ± 0.003	0.254 ± 0.003	0.263 ± 0.005	0.233 ± 0.005
$i, ^\circ$	86.3 ± 0.4	86.9 ± 0.3	85.7 ± 0.6	84.9 ± 0.6
e	0.0613 ± 0.0003	0.0605 ± 0.0002	0.613 ± 0.0004	0.0595 ± 0.0004
$\omega, ^\circ$	192.2 ± 0.5	187.6 ± 0.5	188.9 ± 0.8	196.6 ± 0.8
L_1	0.354 ± 0.005	0.313 ± 0.005	0.359 ± 0.007	0.464 ± 0.007
L_2	0.346 ± 0.005	0.382 ± 0.005	0.487 ± 0.007	0.386 ± 0.007
L_3	0.300 ± 0.010	0.305 ± 0.010	0.154 ± 0.010	0.150 ± 0.010
J_1/J_2	1.02 ± 0.02	1.03 ± 0.02	1.03 ± 0.02	1.03 ± 0.02
σ	0.0076	0.0076	0.0138	0.0137

Izoh. u_1, u_2 – limb darkening koeffitsientlari barcha variantlarda 0,30 ga teng o'zgarmas deb olingan. "a" va "b" variantlari 2021 yilgi ravshanlik egri chiziqlariga to'g'ri keladi; kuzatuvlar Maydanak observatoriyasida olib borilgan; "c" va "d" variantlari – 2018–2019 yillardagi yorug'lik egri chiziqlari uchun; kuzatuvlar ZTF surishtiruv tomonidan olib borilgan. J_1/J_2 – birlamchi (J_1) va ikkilamchi (J_2) komponentlarning sirt yorqinlik nisbatidir.

V1059 Cep apsid chizig'ining aylanish tezligi yuqoriligini asoslashda va tizim parametrlarini hisoblashda 2012–2013 va 2021 yillardagi kuzatuvlarga qo'shimcha ravishda ZTF natijalaridan ham foydalanildi. Olingan barcha qiymatlarga asoslangan apsid chizig'ining aylanish tezligining o'rtachasi:

$$d\omega/dt = 7.1^\circ \pm 0.4^\circ/\text{yil}$$

bundan esa $U=50,7 \pm 2,8$ yil apsidal davrini berdi.


V1059 Cep yulduzining birlamchi va ikkilamchi komponentlari o'rtasidagi harorat farqi ularning yuza yorqinliklariga nisbatidan $J_1/J_2 = (L_1 r_2^2)/(L_2 r_1^2)$ ifoda orqali baholandi. 2018–2019 va 2021 yillardagi ravshanlik egri chiziqlari bo'yicha yechimlar J_1/J_2 nisbatining 1-yechimdan 3% dan oshmasligini ko'rsatdi. Tadqiq qilinayotgan ikki komponentli tizim tarkibidagi yulduzlar o'xshash fizik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Plank tenglamasiga ko'ra

$\frac{J_1}{J_2} = \exp \left(\frac{c}{\lambda(1/T_{2\text{eff}} - 1/T_{1\text{eff}})} \right)$ komponentalar o'rtasidagi harorat farqi 200 K dan oshmasligi va massalari bir-biridan 5% dan ortiq farq qilmasligi ko'rsatildi.


Quyosh kimyoviy tarkibiga ega yulduzlarning evolyutsion yo'llari ($X = 0,7$, $Z = 0,02$) (6-rasm) $k_2(T_{\text{eff}})$ ga bog'liqligini namoyish etdi. 6-rasm ko'rsatilganidek, k_2 qiymatlari va taxmin qilingan samarali harorat $T_{\text{eff}} = 11100-12680$ K diapazoni massalari $3M_\odot$ dan $3,7 M_\odot$ gacha bo'lgan B8V–B7V spektral sinf yulduzlarga mos keldi. Keplerning uchinchi qonuniga ko'ra tizim orbitasining katta o'qi $a=(14.8 \pm 0.5)R_\odot$ va absolyut radiuslari $R_1^{\text{obs}}=(3.4 \pm 0.2)R_\odot$, $R_2^{\text{obs}}=(3.6 \pm 0.2)R_\odot$ teng ekanligi hisoblandi. Yulduzning yorqinligi, radiusi va haroratini bog'lash madsadida biz Stefan–Boltzmann formulasidan foydalandik:

$$\log\left(\frac{R}{R_{\odot}}\right) = \frac{1}{2}\log\left(\frac{L}{L_{\odot}}\right) - 2\log\left(\frac{T_{\text{eff}}}{T_{\odot}}\right) \quad (4)$$

Yulduzning yoshiga qarab radiusning o'zgarishi 7-rasmda ko'rsatilgan. 8-rasmda k_2 parametrining yoshga bog'liqligi keltirilgan. Faqat massasi $M=(3.4\pm0.3)M_{\odot}$ massaga ega bo'lgan yulduzlar, spektral sinfi B7V–B7.5V bo'lgan yulduzlarning umri $t = (1.8 \pm 0.3)\times10^8$ yil (3-jadval) bo'lib, ularning parametrlari ko'rsatilgan barcha grafiklarga mos keladi.




6-rasm. Koeffitsient k_2 ning yulduz harorati bo'yicha qaramligi. Nazariy evolyutsion yo'llar massa qiymatlari $2.5M_{\odot}$, $3.2M_{\odot}$, $4M_{\odot}$ bo'lgan yulduzlar uchun ko'rsatilgan. Nuqtali chiziqlar kuzatuvlarimizdan olingan k_2 parametrining chegaralarini hamda kataloglardagi yulduzlarning T_{eff} samarali haroratlarini ko'rsatadi.



7-rasm. Yulduzning radiusining uning yoshiga bog'liqligi. $2.5M_{\odot}$, $3.2M_{\odot}$, $4M_{\odot}$ massali yulduzlar uchun nazariy evolyutsion yo'llar (4) formula yordamida hisoblangan. Radiuslarni hisoblashda ishlatilgan parametrlar boshqa manbasidan olingan. Nuqtali chiziqlar yulduzlarning nisbiy radiuslari va Keplerning uchinchi qonuni bo'yicha hisoblangan yarim katta o'q chegaralarini ko'rsatadi.

3-Jadval. V1059 Cep tizimdagi yulduzlarning fizik xususiyatlari, apsidal chiziqning nazariy va kuzatilgan aylanish tezligining tengligi taxminiga binoan hisoblangan qiymatlari.

parametr	Asosiy komponent	Ikkinchi komponent
spektr	B6.5V–B7V	B6.5V–B7V
T_{eff} K	11900–12600	11900–12600
$M M_{\odot}$	3.3 ± 0.2	3.3 ± 0.2
$R R_{\odot}$	3.4 ± 0.2	3.6 ± 0.2
k_2	0.0047 ± 0.008	0.0047 ± 0.008
yoshi, 10^8 yil	1.8 ± 0.3	1.8 ± 0.3
$\log g$, cm/c^2	3.75 ± 0.25	3.75 ± 0.25




8-rasm. k_2 koeffitsientining yulduzning yoshiga bog'liqligi. Nazariy evolyutsion yo'llar massalari $2.5M_{\odot}$, $3.2M_{\odot}$ va $4M_{\odot}$ bo'lgan yulduzlar uchun ko'rsatilgan. Nuqtali chiziqlar kuzatuvlarimiz asosida aniqlangan k_2 parametrining chegaralarini bildiradi.

Ichki tuzilish parametri ($k_2 = 0,0047 \pm 0,0008$) yulduzlarning o'qi va orbital aylanishlari sinxronlashtirilgan deb taxmin qilingan holda hisoblandi. Har bir komponent tezliklari uchun sinxronlashtirish vaqti formulasidan foydalanib hisoblanishi mumkin:

$$t_{\text{sync}} = \frac{1}{52^{5/3}} \left(\frac{R^3}{GM} \right)^{1/2} \times \left(\frac{I}{MR^2} \right) \frac{1}{q^2} \frac{1}{(1+q)^{5/6}} \frac{1}{E_2} \left(\frac{a}{R} \right)^{17/2}, \quad (5)$$

